



ME'DA VA O'N IKKI BARMOQ ICHAKNING YARA KASALLIKLARIDA ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

Dilrabo Ikramova Islamovna
Buxoro viloyati G'ijuvon tumani
Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya: Ushbu maqolada me'da - ichakning kislota va HP - infeksiyaga bogliq kasalliklari, ya'ni surunkali gastrit va yara kasalliklari suyaklar mineral zichligining kamayishida muxim xavfli omillar ekanligini aniqlashga xarakat qildik. Va bu kasalliklarda suyak tuqimasida rivojlanadigan asoratlarning oldini olish xamda davolash metodikalarini ishlab chiqishni uz oldimizga maqsad qilib quydik.

Kalit so'zlar: Osteoporoz, Helikobakter pilori, korrelyasion bog'liqlik, suyak tuqimasining zichligini.

Аннотация: В данной статье мы попытались выяснить, что заболевания желудка – кишечная кислотность и HP – инфекция, то есть хронические гастриты и язвенные болезни, являются важными факторами риска снижения минеральной плотности костной ткани. И мы поставили перед собой цель разработать методы профилактики и лечения осложнений, развивающихся в костной ткани при этих заболеваниях.

Ключевые слова: остеопороз, Helicobacter pylori, корреляция, плотность костной ткани.

Abstract: In this article we tried to find out that stomach diseases - intestinal acidity and HP - infection, that is, chronic gastritis and peptic ulcers, are important risk factors for reducing bone mineral density. And we set ourselves the goal of developing methods for the prevention and treatment of complications developing in bone tissue in these diseases.

Key words: osteoporosis, Helicobacter pylori, correlation, bone density.

O'n ikki barmoqli ichak yarasi (lot. *ulcus duodeni*) — surunkali kasalliklar guruhiga kiruvchi va a'zoning shilliq qavatida yarali nuqson paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan patologiya. Kasallik davomiyligi remissiya davrlari, alomatlarining deyarli yo'qligi va xuruj olish (retsitiv) davri bilan boruvchi to'lqinsimon kechishga ega. Ko'p hollarda 12 barmoqli ichak yarasi oshqozon yarasi bilan bir vaqtning o'zida tashxislanadi — bu holda umumiy patologiya haqida gapiriladi.



Osteoporoz (OP) rivojlanishida asosiy xavfli omillar: yosh, jins, irsiy va qonstitusional omillar, alimentar omillar, zararli odatlar va turmush tarzi hamda har xil kasalliklar, jumladan, hazm trakti kasalliklari sanaladi. Adabiyotlarda asosan, birlamchi OP (postmenapauza va senil) rivojlanishi va asoratlari haqida ta'kidlangan. Ikkilamchi OP haqida yetarlicha kursatilmagan. Ammo, ikkilamchi OP, ya'ni revmatologik, onkologik, endokrinologik, hazm trakti, upkaning surunkali kasalliklari va buyrak kasalliklari, gipodinamiya, uzoq vaqt turli dori vositalari (glyukokortiksteroidlar, immunodepresantlar, tireoid gormonlari va x.k.) qabul qilish xam tibbiyotning uta jiddiy muammolaridan biri sanaladi. Jumladan, hazm trakti kasalliklari (surunkali pankreatit va gepatitlar, malabsorbsiya sindromi). Birok, me'da - ichak kasalliklarida kelib chiqadigan va rivojlanadigan OP haqida mavjud adabiyotlarda ifodalanmagan. Bu muammo gastroenterologlar uchun xam yetarli axamiyatga egadir. Negaki, me'da - ichakning maldegistiya va malabsorbsiya (jigar kasalliklari, me'da rezeksiyasidan keyingi xolatlar, ingichka va yug'on ichak kasalliklari xamda yara kasalliklari) bilan kechadigan va osteoporoz rivojlanishiga olib keladigan kasalliklari keng tarqalgan. Ammo, me'da - ichak kasalliklarida suyaklar mineral zichligi o'zgarishi haqida qarama - qarshi fikrlar xam yuq emas. Tibbiyotda, o'n ikki barmoqli ichak yarasini bir necha turini tasniflash qabul qilingan. Ular barchasi o'z xususiyatlariga ega va har birini davolash uchun individual yondashuv talab qilinadi.

Klinik shakliga ko'ra o'tkir (birinchi bor aniqlangan) va surunkali yara kasalligi farqlanadi. Yara kasalligi latent (yashirin), yengil (ba'zida retsidivlar bilan), o'rta (yil davomida 1-2 retsidivlar) va og'ir (yiliga 3 va undan ko'p retsidivlar) bilan kechadi.

Ushbu kasallik rivojlanishining asosiy sababi *Helicobacter pylori* — oshqozon yarasi rivojlanishiga sababchi bo'ladigan patogenlar hisoblanadi. Oshqozon yarasi uzoq vaqt davom etganda bakteriyalar albatta o'n ikki barmoqli ichak shilliq qavatiga ham tushadi va u yerda yara hosil qiladi. Ushbu bakteriyalar oshqozon yarasi bo'lgan 87% bemorlarda, 12 b. ichak yarasi bo'lgan 95% bemorlarda aniqlanadi. 12 barmoqli ichak yarasining paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan boshqa ko'plab omillar ham mavjud. Unga quyidagilar kiradi:

- Surunkali charchoq, stress, doimiy qo'zg'alganlik, depressiya, psixoloemotsional fonda buzilishlar;
- Genetik darajada moyillik;



- Me'da shirasi nordonligining oshib ketishi — bu holda u o'n ikki barmoqli ichakka kirib, shilliq qavatni qo'zg'atadi;
- O'n ikki barmoqli ichakda surunkali yallig'lanish jarayoni — duodenit;
- Boshqa patologiyalar fonida immunitetning sezilarli darajada pasayishi;
- Ba'zi dori-darmonlardan uzoq muddatli foydalanish — masalan, steroid / nosteroid yallig'lanishga qarshi (analgin, aspirin, diklofenak), antibakterial vositalar;
- Chekish, ayniqsa och qoringa;
- Gastrinoma;
- Ovqatlanish ratsionining buzilishi.

Mazkur kasallikni davolash uzoq davom etadi, bemor butun hayoti davomida parhezga amal qilishi kerak bo'ladi. Garchi hammasi o'ta ayanchli emas — shifokorlar parhez to'liqsimon bo'lishi mumkinligidan ogohlantiradilar: kasallikning xuruji davrida oziq-ovqat maksimal darajada chegaralangan va eng avaylovchi bo'ladi, uzoq muddatli remissiya davrida esa istalgan, hatto zararli oziq-ovqatlarni iste'mol qilishga ham ruxsat beriladi.

REFERENCES

1. Франке Ю., Рунге Г. Остеопороз. - М.: Medicina, 2005. - 300 с.
2. Хилова К. "Системные остеопороз I Costnix System System Zubochelystnoy. Словакофарма Revuel. 2008. №4 S. 99-101.
3. Simmerman Ya.s. Патология гастродуоденона I Helicobacter pylori: Точка Стрена. Клин фармакол. я потею. 2006; 2: 37-40.
4. Simmerman Ya.s. Yazvennaya Bolazn I Helicobacter pylori - Infusion: Novie Fact, Razhantleniya, preololologoya. Clin, Med. 2005; 4: 67-70.
5. Kawamoto R, Murase C. //Relationship between bone metabolism and effects oflifestyles after gastrectomy. J UOEH. 2005 Mar 1;27(1):73-87.
6. Usmonov, M.T. & Shokirov.,Sh.H, (2022). Teylor formulasini matematik masalalarni yechishdagi ahamiyati.